

**QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA BO‘LAJAK  
MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY  
YONDASHUV  
КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ  
БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА  
COMPETENCE-BASED APPROACH TO TRAINING FUTURE  
AGRICULTURAL SPECIALISTS**

**Buranova Dulfuzaxon Anvarovna**

*O‘zbekiston. Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar  
instituti assistenti*

**Буранова Дильфузахон Анваровна**

*Узбекистан. Ассистент Андижанского института сельского  
хозяйство и агротехнологии*

**Buranova Dulfuzakhon Anvarovna**

*Uzbekistan. Assistant of Andijan institute of agriculture and agrotechnology*

**Annotatsiya.** Qishloq xo‘jaligida oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash sifati iqtisodiyotning rivojlanish sur‘atlariga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va qishloq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Ish beruvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki va zamonaviy ta’lim metodlarining joriy etilishi haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация.** Качество подготовки высококвалифицированных специалистов в сельском хозяйстве напрямую влияет на темпы развития экономики. В статье анализируется сущность компетентностного подхода, изменения в системе образования и современные проблемы подготовки кадров для сельского хозяйства. Обсуждается участие работодателей в образовательном процессе и внедрение современных методов обучения.

**Abstract.** The quality of training of highly qualified specialists in agriculture directly affects the pace of economic development. This article analyzes the essence of the competency-based approach, changes in the education system and current problems of training personnel for agriculture. The participation of employers in the educational process and the introduction of modern educational methods are discussed.

**Kalit soʻzlar.** Qishloq xoʻjaligi, malakali mutahassis, zamonaviy taʻlim, oʻqitish, bilim, malaka, kompetentlik, kompetentsiya, bitiruvchi, oʻrganish, qobiliyat.

**Ключевые слова.** Сельское хозяйство, квалифицированный специалист, современное образование, обучение, знания, умения, компетентность, компетенция, выпускник, обучение, способность.

**Key words.** Agriculture, qualified specialist, modern education, training, knowledge, skills, competence, competence, graduate, learning, ability.

**Kirish.** Qishloq xoʻjaligi sohasida malakali mutaxassislarining yetishmovchiligi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu holat zamonaviy taʻlim mazmunining iqtisodiyot va sivilizatsiya talablariga mos emasligi bilan bogʻliq. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xoʻjaligi rahbarlari va mutaxassislarining roli oʻzgarib, ularning koʻnikmalari va bilimlari boʻyicha yangi talablar shakllanmoqda.

**Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari.** Kompetensiyaviy yondashuv dastlab Angliyada ishlab chiqilgan boʻlib, taʻlim tizimi ichidagi emas, balki kasbiy sohaning aniq talablariga javoban shakllangan. AQSh da esa 1970-yillardan boshlab, biznes sohasida kompetensiya va asosiy kompetensiyalar tushunchalari muvaffaqiyatli mutaxassis sifatlarini aniqlash maqsadida qoʻllana boshlandi. Taʻlim tizimi bilim, koʻnikma va malakalar bilan ishlasa, kasbiy soha kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi. Shuning uchun taʻlimning asosiy vazifalaridan biri kasbiy sohada talab qilinadigan kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Kompetensiya va kompetentlikning farqi haqida to'hatalsak, kompetensiya – bu jamiyat tomonidan belgilangan ta'lim talabi bo'lib, u o'quvchining kasbiy faoliyatida samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Kompetentlik esa – bu o'quvchining tegishli kompetensiyalarga ega ekanligini va ularni amalda qo'llay olishini anglatadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida yetarli malakali kadrlarning mavjud emasligi davlatning ushbu sohaga e'tiborini kuchaytirishni talab qiladi. Qishloq xo'jaligi institutlari va kollejlarda bitiruvchilarini sohaga jalb qilish va ularni uzoq muddat ushlab qolish choralari ko'rilishi lozim.

Mutaxassislarni zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlash uchun:

- Samarali o'qitish metodlari;
- Rivojlangan moddiy-texnik baza;
- Zamonaviy kompyuter o'quv vositalari;
- Ishonchli strategik hamkorlar zarur.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi ta'lim tizimida quyidagi o'zgarishlar amalga oshirilmoqda:

- Kasbiy tayyorgarlik tizimi yangilanmoqda;
- O'quv dasturlariga zamonaviy texnologiyalar bo'yicha yangi mutaxassislik va fanlar kiritilmoqda;
- Qishloq xo'jaligi mutaxassislarining malakasini oshirish va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Ish beruvchilar ta'lim jarayonida faol ishtirok etmoqda:

- O'quv dasturlarini ekspertizadan o'tkazish;
- Zarur kasbiy kompetensiyalarni aniqlash;
- Zamonaviy texnika va uskunalarda bazasida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;
- Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim tizimini tashkil etish bo'yicha hozirda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda:

- Modulli ta'lim texnologiyalari joriy etilmoqda;
- Ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar uchun infratuzilma yaratilmoqda;
- Talabalar bilim va ko'nikmalarni alohida emas, balki kompleks shaklda o'zlashtirishga yo'naltirilmoqda.

**Xulosa.** Kompetensiyaviy yondashuv asosida qishloq xo'jaligida oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masala bo'lib, uning samarali joriy etilishi sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim metodlari, moddiy-texnik bazaning rivojlanishi va ish beruvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtiroki ushbu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Buranova.D. "Qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbiy-kommunikativ tayyorlash". "Экономика и социум" №3(118). 2024. ISSN: 2225-1545; 2541-9285. www.iupr.ru. 101-105 betlar.
2. Buranova.D. "Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining kompetensiyaviy samaradorligini oshirish masalalari to'g'risida", "Муғаллим ҳам үзликсиз билимлендириў", ISSN 2181-7138.4-сан, июль, Нөкис-2024. Қарақалпақстан. 132-135 betlar.
3. Лемешко Т.Б. Дополнительное профессиональное образование в цифровой подготовке кадров АПК // Чаяновские чтения. Материалы I Международной научно-практической конференции по проблемам развития аграрной экономики. М.: Научный консультант, 2020. С. 270-275.
4. Лемешко Т.Б. Направления развития дополнительного профессионального аграрного образования в условиях цифровой трансформации // Бизнес и дизайн ревю. 2021. № 3 (23). С. 15.
5. Цыдыпов Р.Ц. "Компетентностный подход в профессиональной подготовке будущих специалистов сельского хозяйства", Вестник Бурятского государственного университета., 2013 год, №15., -С.183-185.
6. Мерхинова О.Ц., Доржиева С.Б., Оширов Э.Н. " Проблемы развития профессиональной компетентности будущих специалистов сельского

хозяйства”, Бурятская государственная сельскохозяйственная академия им.  
В.Р. Филиппова, Россия [http://www.rusnauka.com/7 NITSB\\_2012 /Pedagogica/2  
103546.doc.htm](http://www.rusnauka.com/7_NITSB_2012/Pedagogica/2103546.doc.htm).